

PISA testi

Mamurova Sanobar Bahodirovna - Fan tasviriy sanat

Bobomurodov Farmon Ochilovich - Fan musiqa

Qoilova Kulsunm Hasanovna - Fan texnologiya

Kogon tuman 15 -maktab Amaliy fanlar

Annotatsiya: Mazkur maqolada PISA tadqiqotidan ko‘zlangan asosiy maqsad, ta’lim siyosati, o‘quvchilarning kreativ fikrlash borasida xalqaro taqqoslash, PISA tadqiqotlari doirasida matematik savodxonlikni baholashdagi muammolar haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: PISA tadqiqoti, kreativ fikrlash, matematik savodxonlikni baholash.

Kirish:

PISA diqqatni o‘n besh yoshli o‘quvchilardan mantiqan kutish mumkin bo‘lgan kreativ fikrlash jarayonlariga qaratadi. Uning maqsadi o‘ta ijodkor shaxslarni aniqlab olish emas, balki g‘oyalarni ifoda etish va aniqlashda o‘quvchilar naqadar kreativ fikrlay olishini, bu ko‘nikma, o‘z navbatida, o‘quv jarayoniga, maktab faoliyatiga va ta’lim tizimining boshqa jihatlariga qanday bog‘liq ekanligini tahlil qilishdir. PISA tadqiqotidan ko‘zlangan asosiy maqsad, ta’lim siyosati va tizimiga yaqqol natijalarga ega, o‘quvchilarning kreativ fikrlash borasida xalqaro taqqoslash mumkin bo‘lgan ma’lumotni taqdim etishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

PISA tadqiqotida kreativ fikrlash yordamchi omillarining murakkab turkumi borasida ma’lumot yig‘ish qiyin, lekin amalga oshirsa bo‘ladigan ishdir. PISA ikki qismdan iborat: test va so‘rovnoma. Test qismi o‘quvchilar g‘oya berish, uni tahlil etish va takomillashtirish bilan bog‘liq vazifalarda o‘zlarining ijodiy yondashuv kognitiv jarayonlarini naqadar ishga sola olishlari haqida ma’lumot beradi. So‘rovnoma ushbu ma’lumotni o‘quvchi kreativ fikrlashining boshqa yordamchi omillari borasidagi ma’lumot bilan, jumladan, ijodiy yondashuv, maktab muhiti haqidagi tasavvurlari, maktab va uning tashqarisida shug‘ullanadigan faoliyat kabi ma’lumotlar bilan to‘ldiradi.

Baholashda ba’zi yordamchi omillar boshqalariga qaraganda yaxshiroq yoritilgan. Masalan, hamkorlikda ishlash ko‘nikmasi ijodiy fikrlashning muhim yordamchi omili bo‘lsa ham, tashkiliy va texnik muammolar sababli u PISA tadqiqotida to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘lchanmaydi.

Natijalar:

PISA - o‘quvchilar yutuqlarini xalqaro baholash dasturi doirasida ko‘p yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar natijasi o‘laroq, quyidagi xulosalarga kelingan:

- Dunyoning aksariyat o‘quvchi yoshlari XXI asrda yashashga tayyor emas, ya’ni zamonaviy jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan kompetentsiyalariga to‘liq ega emaslar;

- maktab ta’limi ko‘p jihatdan bu kompetentsiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilmagan;

- o‘quvchilar egallagan bilim va ko‘nikmalarini qayerda ishlatilishini bilishmaydi;

- darsliklar va undagi o‘quv topshiriqlari mazmuni ham bunday vazifani bajarishga mo‘ljallanmagan.

Muhokama:

O‘zbekistonda 2021-yilda o‘tkazilishi mo‘ljallanayotgan PISA tadqiqotlari doirasida matematik savodxonlikni baholashda quyidagi muammolarga duch kelishimiz mumkin:

- darsliklarda PISA topshiriqlariga o‘xshash masalalarning yo‘qligi yoki kamligi sababli, o‘quvchilarda bunday amaliy faoliyatlarni amalga oshirish tajribasining yetishmasligi oqibatida PISA tadqiqotlari natijalari past bo‘lishi mumkin;

- PISA topshiriqlari odatda uzundan-uzun matnlar yordamida tasvirlanib, ulardagi real vaziyat va muammolarni hal qilish usulini tanlash uchun matematikaning qaysi bo‘limiga murojaat qilish haqida ko‘rsatmalar yo‘q;

- mamlakatimiz maktablari matematika fani o‘quv dasturi PISA tadqiqotlarining matematik savodxonlikni baholash dasturi mazmuni va ketma-ketligidan farq qiladi. PISA sinovlarida hali o‘tilmagan mavzular bo‘yicha topshiriqlar ham berilishi mumkin;

- PISA topshiriqlarining berilishi va unga javob berishning o‘zgachaligi ham o‘quvchilarda ma’lum qiyinchiliklarni tug‘diradi.

- sinovning kompyuter asosida o‘tkazilishi esa kompyuterda ishlash va ba’zi maxsus ilovalardan foydalanish ko‘nikmalarini ham talab etadi. Ba’zi interaktiv topshiriqlarni bajarish oldindan bunday topshiriqlar bilan tanish bo‘lish va ularda ishlash dasturidan foydalanish ko‘nikmalarining shakllanganligiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa:

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, PISA topshiriqlarini yechish uchun matematikada chuqur bilim va ko‘nikmalarni talab qilinmaydi. Lekin, o‘zlashtirilgan muayyan bilim va ko‘nikmalarni hayotiy vaziyatlarga qo‘llashga juda katta e’tibor beriladi. Ularni fakultativ kurs mashg‘ulotlarida ham muhokama qilish tavsiya etiladi. Shuningdek, matematika fanidan loyiha ishlariga ham alohida e’tibor qaratish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. A.A.Ismailov, N, Karimov, B.Q., Xaydarov, Sh. Ismailov, Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash, uslubiy qo'llanma, Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 2019
2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash” metodik qo'llanmasi. 2019.
3. Abdullayeva B.S., Saidova M.J., Dilova N.G. Matematika o'qitish metodikasi. Darslik. 2021,
4. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent. – 2019.